



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Djalalov Baxromjan Begmurzayevich <sup>1</sup>, Mirzaahmedova Shohsanam Nishonboy qizi <sup>2</sup>

<sup>1</sup> Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi, p.f.b.f.d (PhD)

<sup>2</sup> Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich magistranti

## BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA REFLEKSIV MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “refleksiya” va “madaniyat” tushunchalarining mazmuni va mohiyati, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida refleksiv madaniyatni rivojlantirish dolzarb psixologik-pedagogik zaruriyat ekanligi xususida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** refleksiya, madaniyat, refleksiv madaniyat, qadriyat, psixologiya, pedagogika, kasbiy faoliyat. refleksiya, madaniyat, refleksiv madaniyat, kasbiy faoliyat, falsafa, psixologiya, pedagogika.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlarning bosh maqsadi jahon talablariga javob beradigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iborat. Bu borada bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasi o'zining dolzarbligini aks ettirmoqda. Hozirgi kunning talablaridan kelib chiqqan holda mutaxassis tayyorlashga nisbatan zamonaviy talablarning qo'yilayotganligi fikrimizning yaqqol isbotidir. SHu nuqtai nazardan olganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida refleksiv madaniyatni rivojlanligi ularni yosh avlod ta'lim-tarbiyasida shaxslararo munosabatlar tizimida hamda o'qituvchi-o'quvchi hamkorliklarida yaqqol kuzatiladi. Ta'kidlash joizki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi shaxsida refleksiv madaniyatni rivojlanganligi ularni insoniy munosabatlar tizimida o'ziga xos o'ringa ega bo'lishiga olib keladi. Mazkur jihat ilgari surilayotgan muammoning nechog'li dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Refleksiya – shaxsiy xususiyatlarni, ularning atrof-dagilar tomonidan qanday qabul qilinayotganligini anglash hamda o'z hulq – atvorini kutilajak reaksiyalarni hisobga olgan holda shakllantirish qobiliyati.

Pedagogika ensiklopedik lugʻatida refleksiya boshqacha tarzda talqin etiladi. Refleksiya - (lotin tilidan reflexio – ortga nazar) – mulohaza yuritish, oʻzini oʻzi kuzatish.

Psixologik lugʻatda refleksiya tushunchasi shunday izohlanadi: refleksiya (lot. reflexio – ortga nazar) – subekt tomonidan ichki psixik aktlar va holatlarni anglash jarayoni. Refleksiya tushunchasi falsafa fanida yuzaga keldi va u individning ongida sodir boʻlayotganlar toʻgʻrisida fikrlash jarayoni matnosini bildirgan.

Ilmiy adabiyotlarda refleksiya muammosiga koʻplab yondoshuvlar mavjud.

Zamonaviy ensiklopediyalarda refleksiya – oʻzining xatti-harakatlari, xulq-atvori, nutqi, tajribasi, hissiyotlari, holatlari, xarakteri, oʻziga va oʻzgalarga boʻlgan munosabati, vazifalari, topshiriqlari – umuman oʻzini oʻzi anglash, tushunish, tahlil qilishga yoʻnalgan aqliy jarayon sifatida koʻrsatiladi.

J.Lokk fikricha, refleksiya – bu aql oʻz faoliyatini jalb etadigan kuzatuv”dir.

R. Dekart refleksiyaning individning barcha tashqi, jismoniy narsalardan yiroqlashib, oʻz fikrlari mazmuniga diqqatini qaratish qobiliyati bilan muvofiqlashtirgan. Dj. Lokk sezgi va refleksiyaning ajratib, refleksiyaning bilimning alohida manbai (sezgi azolariga asoslangan tashqi tomondan farqlanuvchi ichki tajriba) sifatida talqin etgan. Mazkur qarashlarda insonning oʻzi tomonidan his qilinayotgan ong hodisalari toʻgʻrisidagi oʻz-oʻziga hisobot berish, shaxsiy psixik holatlarini tahlil qilish qobiliyati noadekvat tarzda oʻzgardi. Refleksiya – ortga nazar, yani, insonning oʻz fikrlari, xatti – harakatlarining dastlabki holatiga bir nacha marotaba murojaat etish, tashqi kuzatuvchi oʻrniga tura olish, nima qilayotgani, qanday anglayotgani, shu jumladan oʻzini qay tarzda anglayotganini bilish qobiliyatidir. Ammo bu shunchaki subektning oʻzini oʻzi tushunishi va bilishigina emas, balki atrofdagilarning uni, shaxsiy xususiyatlarini, emotsional reaksiyalari hamda kognitiv (bilish bilan bogʻliq boʻlgan) tasavvurlarini qanday bilishlari va tushunishlarini aniqlash hamdir. Hamkorlik faoliyatining predmeti mazkur tasavvurlarning mohiyati sifatida namoyon boʻlganda refleksiyaning alohida shakli – predmetli – refleksiv munosabatlar rivojlanadi.

Refleksiya mexanizm sifatida identifikatsiyaga qaraganda birmuncha kechroq shakllanadi. Bolada identifikatsiyaga nisbatan qobiliyat ancha erta namoyon boʻlsa, refleksiyaning ilk nishonalari maktabgacha yosh davridagi bolada, shaxsning yangi bilimlarni egallash manbai sifatida esa u kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarda rivojlanadi. Refleksiya chetlanishga, turli holatlarni egallashga yordam beradi, bu oʻz navbatida, oʻzini oʻzi chuqur va toʻliq tahlil qilishning imkonini beradi. Kichik maktab yoshi davrida refleksiya boʻlgan qobiliyat birmuncha oqsaydi, uning dastlabki asoslarigina rivojlanadi. Kichik maktab yoshi davrining soʻngigiga kelib, oʻzini oʻzi anglash imkoniyatlarini kengaytiruvchi hamda talabalik davrida oʻzining yangi “Men”ini, ichki olamini yaratishga asos boʻlib xizmat qiluvchi refleksiv qobiliyatlar ortib boradi.

Refleksiya – bu faqatgina oʻzini oʻzi tushunish, oʻzini oʻzi anglash jarayoni emas. U oʻz tarkibiga oʻzgalarni tushunish va baholash jarayonlarini ham oladi. Refleksiya yordamida oʻz ongi, qadriyatlarini, qadriyatlar bilan bogʻliq fikrlarining atrofdagi kishilar, guruhlar, jamiyat va nihoyat, umuminsoniy fikrlar, munosabatlar bilan muvofiqlashuvi amalga oshadi. Biror narsani tahlil qilish – bu boshdan kechirish, oʻz ichki olamidan oʻtkazish, baholash hisoblanadi. Har bir insonning refleksiya olami individual, turlicha va boy mazmunga ega. Aynan refleksiya boʻlgan qobiliyat insonga xatti – harakatlar, hayot mazmunini va tasavvurlarini shakllantirishga, samarasi past darajada boʻlganlarini bartaraf

etishga imkon beradi. Refleksiyaning muhim jihati bo'lib, shaxsiy faollikni shaxsiy qadriyatlar va fikrlar bilan mutanosiblikda boshqarish, faoliyatning o'zgargan vazifalari, maqsadlari va sharoitlari bilan bog'liqlikda yangi mexanizmlarni shakllantirish va ularga o'tishga bo'lgan qobiliyati hisoblanadi. Refleksiya o'tmish to'g'risida mulohaza yuritish va kelajakni ko'ra bilishga xizmat qiladi.

Barcha tariflardagi umumiylik shundan iboratki, refleksiya – bu insonning o'ziga tashqaridan razm solish, xatti – harakatlarini tahlil qilish, zarur bo'lsa ularni o'zgartirishga bo'lgan qobiliyatidir[1].

Refleksiya tushunchasining psixologiya doirasida o'rganish predmeti sifatida ishlab chiqilishi, psixologiya fanining toifaga oid-ontologik tuzilmasi rivojlanishining zamonaviy bosqichida etarli darajadagi muhim o'rinni egallab ulgurgan, degan xulosaga kelish imkonini beradi. Ilmiy adabiyotda “madaniyat” tushunchasi ko'p ma'noli, ko'p jihatli hodisa sifatida ifodalanadi (A.I.Arnoldov, L.M.Arxangelskiy, V.I.Bakshtanovski, B.S.Bratus, S.N.Ikonnikov, D.M.Stankov, A.I.Titarenko, A.K.Uledov va boshqalar)[2].

Mualliflar madaniyatning ko'pfunksionalligini alohida ta'kidlaydilar, uning ijtimoiy tabiatini, insonparvarlikka yo'naltirilganligini ajratib ko'rsatadilar. Madaniyatning quyidagi turlari tahlil qilinadi:

- tashkillashtiruvchi madaniyat (R.Lavl);
- innovatsion madaniyat (V.I.Dolgova);
- axborot madaniyati (Y.P.Melenteva);
- psixologik madaniyat (N.T.Seleznyova);
- tafakkur madaniyati (O.S.Anisimov).

Madaniyatni keng ko'lamda anglash imkonini beruvchi ta'rif – bu uning ensiklopedik ta'rifidir: Madaniyat (lotin. cultura – ishlov berish, tarbiyalash, ta'lim berish, rivojlantirish, e'zozlash) – jamiyat rivojlanishi, inson ijodiy kuchlari va imkoniyatlari rivojlanishining odamlar hayoti va faoliyatini tashkillashtirish turlari va shakllarida, ularning o'zaro munosabatlarida, shuningdek, ular tomonidan yaratilayotgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarda ifodalangan muayyan darajasidir.

“Madaniyat” tushunchasi ma'lum tarixiy davrlar, muayyan jamiyatlar, xalqlar va elatlarni, shuningdek, faoliyat va hayotning (mehnat madaniyati, siyosiy madaniyat) o'ziga xos sohalarini ta'riflash uchun qo'llaniladi; nisbatan tor ma'noda esa – odamlarning ma'naviy hayoti sohasidir. U odamlar faoliyatining predmetga oid natijalarini (mashinalar, inshootlar, anglash natijalari, san'at asarlari, ahloq va huquq meyorlari va hokazo), shuningdek, faoliyat davomida (bilimlar, ko'nikmalar, mahoratlar, intellekt darajasi, ma'naviy va estetik rivojlanish, dunyoqarash, odamlar muloqotining shakl va usullari) qo'llaniluvchi inson kuchi va imkoniyatlarini qamrab oladi. Bundan ko'rinib turibdiki, madaniyat – bu insonning ham faoliyatga ham shaxsiyatga oid xususiyatidir. U insonning tafakkuri va o'z-o'ziga bo'lgan munosabati darajasini aks ettiradi[3, 678].

Ko'p mualliflar “madaniyat” tushunchasini uning inson faoliyati bilan genetik aloqasidan tashqariga olib chiqadilar. Ular madaniyatda avvalambor dasturlovchi vazifani ajratib ko'rsatadilar (M.S.Kagan, E.S.Markaryan, V.M.Mejuev).

“Madaniyat – bu odamlar ishlab chiqarayotgan va qanday qilib ishlab chiqarayotgan narsadir”. SHu bilan birga ishlab chiqarish ostida odamlarning ijtimoiy-madaniy faoliyati

bo'lgan jamiki inson faoliyati majmui tushuniladi. Boshqa ma'noda madaniyat xayolning tushunishga oid apparatini tashkillashtirish meyorlari sifatidagi anglash natijalarini bayon qilishning mantiqiy qonunlarini egallashdan iborat. Qator mualliflar odamlarning ma'lum jamoasi madaniyatining umumiy jihatlarini o'rganadilar.

M.Kubr madaniyatni muayyan odamlar guruhiga xos bo'lgan qadriyatlar, fikrlar, an'analar va xulq-atvor meyorlarini jamoada mavjud tizimi sifatida tushunadi.

Dj.Xoffsted tashkilotdagi madaniyat tushunchasiga funksional ta'rif beradi: "Madaniyat – bu odamlarning bir guruhi a'zolarini boshqasidan ajratib turuvchi inson ongining jamoaviy dasturlanishidir. Bu nuqtai nazardan madaniyat jamoaviy qadriyatlar tizimidir". Freydizmda madaniyat ijtimoiy xulq mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Madaniyatga berilgan ta'riflarda kognitiv tarkibiy qismlar (intellekt) ajratib ko'rsatilgan: sababiy-qadriyatga oid tarkibiy qismlar (dunyoqarash, ma'naviy rivojlanish, estetik anglash darajasi). Kommunikativ omilkorlik darajasi ham aniqlangan ("odamlar muloqoti usullari va shakllari").

Kognitiv tarkibiy qism bilan bir qatorda madaniyatda ma'naviy tarkibiy qismni ham ajratib ko'rsatadilar. Madaniyat quyidagilar sifatida namoyon bo'ladi:

- insonning tabiiy va ijtimoiy sohalaridan tashqarida yotuvchi "ma'naviy erkinlik" sohasi;
- qadriyatlarning o'ziga xos tizimi;
- insonning o'zini o'zi anglash ehtiyoji;
- o'zini o'zi rivojlantirishga va o'zini o'zi takomillashtirishga doimiy tayyorlik va hokazolar. Biroq, psixologik madaniyat tushunchasi mavjud psixologik lug'atlarning hech birida mustaqil tushuncha sifatida ochib berilmagan. SHu bilan birga, u alohida hodisa sifatida mamlakatimiz psixologlari tomonidan faol muhokama qilinmoqda.

O.I.Danilenko psixologik madaniyatni "insonga o'z psixik vazifalarining eng maqbul darajasini saqlab turish imkonini beruvchi vositalar, usullar, uskunalar majmui" sifatida ta'riflaydi. Bunda shaxsning psixologik etukligi jumladan, insonda boy psixologik madaniyat shakllanishi bilan ham ifodalanadi...". E.N.Bogdanov "madaniyat" atamasining ilmiy va kundalik qo'llanilishini ajratib ko'rsatadi.

Kundalik ma'nosi–doimo baholovchi; ilmiy ma'nosi – madaniyatga faoliyat predmetini ilmiy egallash holatlarining biri sifatidagi baholovchi yondashuvini qamrab oluvchi mohiyatga oid. Madaniyat ongli ravishda, aniq maqsadga yo'naltirilgan holda, ta'lim va tarbiyaning maxsus vositalarini qo'llash asosida shakllanadi. Boshqa tarafdin esa, bu shaxsning ijtimoiy etukligini, uning o'zi va jamiyat uchun muhim bo'lgan masalalarni hal etish qobiliyatini ko'rsatuvchi o'zini o'zi tarbiya qilish, o'zini o'zi yaratishining natijasidir.

Individual tajriba shakllarida mujassamlashtirilgan madaniyat (madaniylik) qandaydir umumiylik sifatida bilimlar va tafakkur, ijodiy harakat madaniyati, hissiyotlar madaniyati, muloqot, xulq-atvorning o'zaro uyg'unligini ifodalaydi.

Shaxs madaniyat sub'ekti sifatida ijtimoiy barqarorligi, ijtimoiy va kasbiy hayotga samarali tarzda kirishganligi hamda psixologik muvofiqligi bilan ajralib turadi.

Shunday qilib, madaniyatga muvaffaqiyatli tarzda kirib borish uchun inson unda o'z o'rnini topishi, o'zining madaniyat bilan bo'lgan o'zaro munosabatlari tizimini aniqlab olishi

lozim[3, 678]. Yuqorida aytilganlar madaniyat tushunchasini aniqlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Refleksiv madaniyat quyidagilarni qamrab oladi:

- yuqori darajadagi noaniqlikka ega bo'lgan vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlik;
- qarorlar qabul qilishdagi egiluvchanlik;
- yangiliklar va innovatsiyalarni amalga oshirishga intilish;
- kasbiy masalalarni hal etishning yangi nostandart usullarini izlashga doimiy yo'naltirilganlik;
- o'z kasbiy va shaxsiy tajribalari stereotiplarini qayta anglash usullari kiradi. Bu kasbiy faoliyat davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijodiy vazifalarni loyihalashtirish va echishda kasbiy imkoniyatlarni ochib berish va amalga oshirishni ta'minlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, refleksiv madaniyatni bu kabi tushunish insonning o'z kasbiy shakllanishiga, o'ziga nisbatan noyob shaxs sifatidagi, o'zining boshqalar va madaniyat bilan muloqoti usullariga ijodiy munosabatda bo'lish imkoniyatini izohlab beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Карпов А. В. Рефлексия в структуре метакогнитивной организации субъекта // Рефлексивные процессы и управление. 2004. № 1.
2. Семенов И.Н. Типология, периодизация и организация рефлексивного подхода в психологии и социально-гуманитарных науках. М.; Ярославль, 2004.
3. Культура // Советский энциклопедический словарь. - М., 1989. - С. 678.
4. Ibragimovna, T. I. (2021). LEGAL AND REGULATORY FUNDAMENTALS OF REFORM OF PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN.
5. Makhmutovna, T. K., & Ibragimovna, T. I. (2020). Specific features of the pedagogical process focused on increasing the social activity of youth. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9, 6.
6. Oxunova, D. (2022). O 'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *Academic research in educational sciences*, 3(2), 870-876.
7. Siddikov, B., & Djalalov, B. (2020, December). MODERNIZATION OF EDUCATION-THE FUTURE INNOVATIVE COMPETENCE OF TEACHERS AS A MAIN FACTOR OF FORMATION. In *Конференции*.
8. Siddiqov, B. S., & Mexmonaliyev, S. N. (2022). PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO 'LAJAK O 'QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O 'RNI. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 10-16.
9. Tuychieva, I. (2015). The concept of pedagogical innovation in modern education. *The Advanced Science Journal*, 87-90.
10. Tuychieva, I. I. (2018). Mechanisms Ensuring Children's Thought Activity Development at Preschool Education Process. *Eastern European Scientific Journal*, (6).



11. Tuychiyeva, I. I. (2017). Question of Using Linguo-cultural Material for Learning Native Tongue in Professional Colleges. *Eastern European Scientific Journal*, (4), 84-88.
12. Urinova, N., & Abdullaeva, N. (2020). Opportunities for formulating research skills for higher education students. *Молодой ученый*, (11), 193-195.
13. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(7).
14. Ахмедов, А. Ю. (2020). БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ЖИХАТЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, (4), 778-781.
15. Ахмедов, А. Ю. (2020). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИНГ АЖРАЛМАС ҚИСМИ БЎЛГАН КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, (SI-2№ 8).
16. Ахмедов, А., Эгамбердиев, А., & Сотволдиева, О. (2022). The role of pedagogical technologies in improving the quality of education. *Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollari*, 1(1), 59-60.
17. Ахмедов, Б. А. (2020). Сиддиков Бахтиёр Саидкулович, Джалалов Бахромжон Бегмурзаевич МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, 9, 60.
18. Ахмедов, Б. А., Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2020). МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, (9 (60)), 20-22.
19. Джалалов Б.Б. (2016). МЕСТО И РОЛЬ ВОЗДЕЙСТВИЯ ВОСПИТАНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ. *Ученый XXI века*, (5-1 (18)), 38-41.
20. Джалалов, Б. Б. (2018). РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION* (pp. 53-55).
21. Джалалов, Б. Б. (2019). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 43-44).

22. Джалалов, Б. Б. (2020). ЁШЛАР ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ НАЗАРИЙ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. *Педагогика ва психологияда инновациялар*, 10(3).
23. Джалалов, Б. Б. (2022). ВО ‘LAJAK O ‘QITUVCHILARNING INNOVATION KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA SMART-TA’LIMNING IMKONIYATLARI. *УЧИТЕЛЬ*, 3(4).
24. Джалалов, Б. Б., Хатамов, Х. А., & Насайдинова, Ф. У. (2016). Преимущества коллективного обучения. *Ученый XXI века*, 40.
25. Охунова, Д. К., & Шоюсупова, О. А. (2016). PEDAGOGICAL BASES OF HARMONIOUS EDUCATION OF STUDENTS. *Учёный XXI века*, (5-1 (18)), 42-45.
26. Охунова, Д. К., & Шоюсупова, О. А. (2016). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ГАРМОНИЧНОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ. *Ученый XXI века*, (5-1), 45.
27. Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2016). ЗАДАЧИ РАЗВИТИЯ АКТИВНОСТИ МОЛОДЁЖИ С ПОМОЩЬЮ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТРЕНИНГОВ. *Ученый XXI века*, (6-2).
28. Туйчиева И.И., & Ганиева Г.В. (2016). ХАРАКТЕРИСТИКА ПРИНЦИПОВ ПЛАНИРОВАНИЯ РАБОТЫ ПО РАЗВИТИЮ РЕЧИ. *Ученый XXI века*, (11 (24)), 48-53.
29. Туйчиева, И. И. (2019). ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ АКТИВИЗАЦИИ МЫСЛИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЕТЕЙ В ПРОЦЕССЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. In *PSYCHO-PEDAGOGICAL PROBLEMS OF A PERSONALITY AND SOCIAL INTERACTION* (pp. 22-25).
30. Ибрагимова, Ш. (2022). ВО ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QITUVCHILARIDA METODIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *УЧИТЕЛЬ*, 3(4).
31. Мирзахамдамовна, Қ. Б. (2022). БЎЛАЖАК ТАСВИРИЙ САНЪАТ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИДА БАДИИЙ ТАФАККУРНИ ШАКЛЛАНТИРИШГА ТАЙЁРЛАШ ШАКЛ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(5), 185-198.